


**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

*61040100 –Transport logistikasi (avtomobil transporti) bakalavriat ta'lim  
yo'nalishining malaka talablari*

**Toshkent-2023**



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat transport universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining  
2023 yil «21» 08 dagi 367- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti)</i> bakalavriant ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishining malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	<i>61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti)</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	7
2.4.	Kvalifikatsiyalar.....	10
	Bibliografik ma'lumotlar.....	11
	Kelishuv varag'i.....	12

# **1. 61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti) bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi**

**61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

## **1.1. Qo'llanish sohasi**

### **1.1.1. 61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti)** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. 61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti) a'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

### **1.2.1. 61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.**

**61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti)** bakalavriat ta'lim yo'nalishi – **“Transport xizmatlari” ta'lim sohasi yo'nalishi bo'lib**, bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari davlat va nodavlat korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, davlat boshqaruv organlarida transportda tashishni tashkil etish va boshqarish bo'yicha kompleks masalalarni yechish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishni o'z ichiga oladi.

### **1.2.2. 61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

– davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;

– transport jarayonlari va ilmiy- tadqiqot jarayoni.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat obyektlarida*

qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan talim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

61040100 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

**1.2.3. 61040100 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ilmiy-tadqiqot;
- loyihaviy-texnologik;
- foydalanish va servis xizmati ko'rsatish;
- ishlab chiqarish-texnologik;
- tashkiliy-boshqaruv;
- tadbirkorlik.

**1.2.4. 61040100 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.**

61040100 – *Transport logistikasi (avtomobil transporti)* ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

– ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda sohaga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

– internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

– transportda yuk va yo'lovchilarni tashishni tashkil etish va boshqarishga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

– kasbiy faoliyat obyekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rganish;

– ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

– ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

– tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;

**Loyihaviy-texnologik faoliyatda:**

– transport sohasida tashish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan obyektlarni loyixalash;

– transportda yuk ortish va mahkamlash chizmalarini ishlab chiqish;

– tashish jarayonining, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda yangi transport-texnologik loyihalarini yaratish;

– transport sohasida samarador yo'nalishlar loyihalarini yaratish.

**Foydalanish va servis xizmati ko'rsatish faoliyatida:**

– axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish, tuzatish va texnik xizmat ko'rsatish;

– avtomobil transportining vositalaridan vositalaridan foydalanish;

– avtomobil transporti stansiyalarining tuzilishi va vazifalarini, avtomobillar harakati grafigini ishlab chiqish, yo'lovchi va yuk tashuvchi avtomobillar harakati grafigini tuzishni bilishi;

– avtomobil transportida yo'lovchilarni tashish, avtobuslarga texnik xizmat ko'rsatish;

– avtovokzallar va avtostansiyalar, yo'lovchi tashuvchi avtobuslar xarakat grafiklari va turlarini tuzishni bilishi;

–transport logistikasi va ekspeditorlik xizmati asoslari, taqsimlash logistikasi tushunchalari, vazifalari, transport-ekspeditorlik xizmati, transport turlari xamkorligi, yuk terminallari tizimi, transport koridorlari, yuklarni yetkazib berish va axborot logistikasini bilishi;

–yuk jo‘natuvchi va yuk qabul qiluvchi mijozlarga servis xizmat ko‘rsatish olish;

–avtomobil transportida boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimidan foydalanish;

–avtomobil transporti harakati bilan bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlarni uzatilishi lozim bo‘lgan axborot xajmini, ma‘lumotlarni tayyorlash va uzatishni bilishi;

–avtomobil yo‘llardan foydalanish ishlarini tezkor boshqarish, foydalanish ishlarining tahlili, avtomobillar harakati grafigi va yo‘llarni o‘tkazish qobiliyati, avtomobillar harakati grafigi elementlari va ularning hisobi, tuzish uslubiyati va ko‘rsatkichlari, avtomobil transporti harakat tezliklari va ularni belgilovchi mezonlar, avtomobil yo‘l uchastkalarda maxalliy ishni boshqarishni bilishi;

–avtomobil yo‘nalishlarining va yuk o‘tkazish qobiliyati hisobining usullari va uni bajarish tartibi, tashkiliy texnikaviy va rekonstruktiv tadbirlar, nostandart vaziyatlarda avtomobil transporti harakatini tashkil etish.

#### **Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:**

–namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash;

–transport sohasi obyektlarida yagona texnologik jarayonlarini ishlab chiqish, yuk va yo‘lovchi, pochta va nostandart yuklarni tashishni tashkil etish, harakat xavfsizligini ta‘minlashda belgilangan tartibda faoliyat ko‘rsata olish;

–amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;

–avtomobil transportda tashishni tashkil etish va boshqarishda qo‘llanilayotgan ilg‘or va innovatsion texnologik tadbirlarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish;

–avtomobil transportda tashishni tashkil etish va harakat xavfsizligini ta‘minlash chora-tadbirlarni belgilash bo‘yicha to‘liq hajmdagi zaruriy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyatni amalga oshirish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

–transport faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

–transportda yuk va yo‘lovchilarni tashish ishlari jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan chora tadbirlarni va resurslarini rejalashtirish;

–ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish va monitoringini olib borish;

–atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida tashish jarayonlarini nazorat qilish;

–transportda tashish jarayonini xavfsiz va sifatli boshqarish;

–tashishlarni boshqarish jamoasi ishini tashkil qilish;

–bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

–harakat tarkiblari ishini tashkil etishda atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

## **2. . 61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

–davlat transportsiyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

–xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan kasb faoliyatida foydalana bilish;

–transportda tashishni tashkil etish va boshqarishning kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

–yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

–sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

## **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

–avtomobil transporti xodimlarining asosiy vazifalarini bilishi, avtomobil transporti inshootlari, jihozlari va harakatdagi vositalari majmuasi to‘g‘risida asosiy ma‘lumotlarni tahlil qilishi, avtomobil transportida qo‘llaniladigan gabarit turlarini va avtomobil transporti ishining asosiy ko‘rsatkichlarini bilishi;

–avtomobil transporti va texnik vositalari va ularning tuzilishi, avtomobil transporti xo‘jaligi, transport korxonalarini tuzilishi, elektr ta‘minot inshootlarini bilishi;

–avtomobil transporti vokzallar, stansiyalarining tuzilishi va vazifalarini, avtomobillar harakati grafigini ishlab chiqish, yo‘lovchi va yuk tashishda transport harakati grafigini tuzishi;

- mamlakat transport tizimiga kiruvchi asosiy transport turlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish, transport turlari asosiy ish ko‘rsatkichlarini hisoblashni bilish;

- har xil transport turlaridan foydalanishning asosiy ish ko‘rsatkichlari, shahar, sanoat va magistral transport turlarining texnik-iqtisodiy tavsifi, transportda ilm-fan, ekologiya va xavfsizlik o‘zaro yondashuvining muammolari va shakllarini o‘rganish;

- yuk va yo‘lovchilarni tashish texnologiyalari, transport-logistik tizimlarini boshqarish, ombor operatsiyalari va ortish-tushirish texnik vositalarini tanlash, halqaro tashishlarni tashkil etish;

- INKOTERMS-2010 qoidalari, multimodal tashuvlar, tashishlarning terminal va kontreyler tizimlarini bilish;

- Roudreyler tashishlar va maxsus konteynerlarda tashishni tashkil etish;

- matematik modellashirish orqali avtotransport va temir yo‘l transporti korxonalaridagi transport vositalaridan samarali foydalanish va iqtisodiy-matematik usullarni qo‘llab tashish jarayonlarini optimallashtirish masalalarini yechish;

- tashish xavfsizligi va sifatini ta‘minlash, tashish jarayonini iste‘molchi ehtiyojlariga moslashtirish hamda uning xarajatlarini kamaytirish, tashishga oid xizmat turlarini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash;

- Vena konvensiyalari, Jeneva Kengashi va xalqaro kengashlar qabul qilgan shartnomalarning talablari va O‘zbekiston Respublikasining harakat xavfsizligi to‘g‘risidagi Qonuni asosida avtomobillarda yuk va yo‘lovchilarni tashish jarayonlarida harakat xavfsizligini tashkil etishni bilish;

- tashishlarni tashkil etish va turli xil transportlar xizmatidan foydalanishda intellektual tizimlari tizimlari xamda GPS va GLONASS tizimlari to‘g‘risida nazariy va amaliy bilimlarga yega bo‘lish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatda multimodal va intermodal tashuvlarda ishtirok etuvchi transport turlari, tashqi iqtisodiy faoliyatda transport ta‘minoti; xalqaro tashuvlarda transport turlari tomonidan bajariladigan transport operatsiyalari haqida nazariy va amaliy bilimlarga yega bo‘lish;

- yuk tashish jarayonini tashkil etish va transport vositalarini tanlash, ortish-tushirishni zamonaviy mexanizmlar yordamida tashkil etish va yuklarni tashishda jahon ilg‘or intellektual texnologiyalarini professional darajada bilish;

- barcha transport vositalarida yo‘lovchilarni shahar, shahar atrofi, shaharalararo va halqaro yo‘nalishlarida tashish jarayonlarini tashki qilishni bilish.

## **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv

rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

o'quv (tanishuv) amaliyoti — iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

malakaviy (ishlab chiqarish) amaliyoti — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti — ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilg'or korxonasi, tashkilot va muassasalari, xorijiy va qo'shma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta'lim va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) obyektlarida va boshqalarda o'tkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, o'tkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

**2.3.1. 61040100 – Transport logistikasi (avtomobil transporti) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5040	168
Tanlov fanlar	1440	48
Malakaviy amaliyot	540	18
Yakuniy davlat attestatsiyasi	180	6

**2.3.1. 61040100 – Transportda logistikasi (avtomobil transporti) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5040</b>	<b>168</b>	
1.01	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.02	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	MK1104	Mutaxassislikka kirish	120	4	1



1.04	XT1108	Xorijiy til 1,2	240	8	1,2
1.05	FIZ1210	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.06	OM1314	Oliy matematika 1,2,3	420	14	1,2,3
1.07	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	TTAT1106	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	180	6	1
1.09	MKG1109	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	2
1.10	SIM4704	Soha iqtisodiyoti	120	4	7
1.11	FAL2304	Falsafa	120	4	3
1.12	EKA3604	Ekologiya	120	4	6
1.13	XFX4804	Hayot faoliyati havfsizligi	120	4	8
1.14	TVTTE2309	Transport vositalari tuzilishi va texnik ekspluatatsiyasi	270	9	3,4
1.15	Log2413	Logistika	390	13	4,5,6
1.16	TUK2304	Transport umumiy kursi	180	6	3
1.17	ATYT2410	Avtomobil transportida yuklarni tashish	300	10	4,5
1.18	JTTTEB 3512	Jamoat transportida tashishni tashkil etish va boshqarish	360	12	5,6,7
1.19	TL4708	Transport logistikasi	240	8	7,8
1.20	TJBIT4708	Tashish jarayonlarini boshqarishning intellektual tizimlari	240	8	7,8
1.21	TEX4803	Transport-ekspeditorlik xizmatlari	120	4	8
1.22	MTT3504	Multimodal tashuvlar texnologiyasi	120	4	5
1.23	TTJM3508	Transportda tashish jarayonlarini modellashtirish	240	8	5,6
1.24	ShTTR3604	Shahar transport tizimini rejalashtirish	120	4	8
1.25	TTSIF4704	Trafik telematikasida sun'iy intellektdan foydalanish	120	4	7
1.26	JTS1204	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1440</b>	<b>48</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar (8 ta fan)</i>	1440	48	3,4,5,6,7,8
		<b>Jami</b>	<b>6480</b>	<b>216</b>	
		<b>Malaka amaliyoti</b>	<b>540</b>	<b>18</b>	<b>2,4,6,8</b>
		<b>Davlat attestatsiyasi</b>	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>8</b>
		<b>Jami</b>	<b>720</b>	<b>30</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

#### 2.4. Kvalifikatsiya: muhandis-logist.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohalari, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, avtomobil transporti vositasi va uning tuzilishi; avtomobil transporti vositalari; logistik ta'minot; avtomobil transporti korxonalari; yuk terminallari; transport tizimi; transport uzellari; moddiy oqimlar; yuk tashish hajmi; yuk oboroti; transport vositasi ish unumi; yuk ortish-tushirish ishlari; yo'lovchilar oqimi; yo'nalishlar tizimi; yo'nalishlar tarmog'i; avtovokzal; avtostansiya; transport uzellari, transport turlaridan foydalanish qoidalari; logistik tamoyillar; logistik tizimlar; omborlar; zahira; avtomobil transporti iqtisodiyoti va menejment; avtotransportda boshqaruv tizimlari; transport-logistik tizimlar; axborot tizimlari; intellektual transport tizimlari; logistik markaz; erkin iqtisodiy xududlar, avtomatlashtirilgan tizimlar, transport logistikasi, xizmat ko'rsatish, avtomobil transporti iqtisodiyoti, avtomobil transportida transportida boshqaruv tizimlari.

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQLDI:

Toshkent davlat transport universiteti

Rektor  O. Abduraxmanov

2023 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi  
Transport vazirligi

Vazir o'rinbosari  I. Abdugafarov

2023 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.



O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni  
tatbiq etish markazi

Direktor  Sh. Yakubov

2023 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.



"Toshshahartransxizmat" AJ

Boshqaruv raisi  A. Djurayev

2023 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.



Toshkent davlat texnika universiteti

Rektor  S. Turabjanov

2023 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.



**Toshkent davlat transport universiteti**  
**61040100–Transport logistikasi (avtomobil transporti) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

**Toshkent sh.**

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi transport vazirligi “O‘zavtotrahstexnika” IIM DUK bosh direktori v.b. Sh.I.Erbekov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori S.M.Turabdjano, Toshkent davlat transport universiteti rektori O.K.Abduraxmanovlar birgalikda Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan 61040100–Transport logistikasi (avtomobil transporti) bakalavriyat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

61040100–Transport logistikasi (avtomobil transporti) bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi malaka talablari hamda o‘quv rejasini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-son qaroriga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja, fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi “O‘zavtotrahstexnika” IIM DUK bosh direktori v.b.**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori**

**Toshkent davlat transport universiteti rektori**

**Sh.I.Erbekov**

**S.M. Turabdjano**

**O.K. Abduraxmanov**